

### **3-MODUL: NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING HUQUQLARI BUZILGANLIK HOLATLARINI HUJJATLASHTIRISH VA DALILLAR TO'PLASH METODLARI**

#### ***Modul doirasidagi asosiy masalalar***

- 1. Huquqbuzarlik holati haqida ma'lumot yig'ishning bosqichlari*
- 2. Hujjatlashtirishning asosiy turlari: yozma, foto, audio va elektron dalillar*
- 3. Dalillarni yig'ish va saqlashning huquqiy talablari*

#### **1-§. Huquqbuzarlik holati haqida ma'lumot yig'ishning bosqichlari**

**Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari buzilgan holatlarni hujjatlashtirish va dalillar to'plash** — ularning huquqiy himoyasi samaradorligini ta'minlaydigan eng muhim bosqichlardan biridir. Har qanday shikoyat, murojaat yoki sud jarayoni dalillarsiz kuchga ega bo'lmaydi. Shu sababli huquqbuzarlik yuz bergan vaziyatni to'g'ri qayd etish, hujjatlashtirish va tasdiqlovchi ma'lumotlarni yig'ish tizimli yondashuvni talab qiladi. Bunda nafaqat davlat organlariga murojaat qilish, balki jamoatchilik nazorati, NNTlar, advokatura va ommaviy axborot vositalari orqali dalillarni mustahkamlash ham muhim o'rin tutadi.

Huquqbuzarlik holatini to'g'ri hujjatlashtirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Har bir bosqich dalillarning ishonchliligi, haqiqiyliги va sud-huquq amaliyotida foydalanish imkoniyatini oshiradi.

##### **1) Vaziyatni aniqlash va dastlabki ma'lumotlarni qayd etish**

Birinchi bosqich — huquqbuzarlik sodir bo'lgan holatning aniq tavsifini yozib olish. Bu bosqich quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- voqea sanasi, vaqti, joyi;
- huquqbuzarlikka sabab bo'lgan harakat yoki harakatsizlik;
- voqeada ishtirok etgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- voqeaning nogironligi bo'lgan shaxsga qanday ta'sir qilgani;
- mavjud bo'lgan moddiy yoki ruhiy zarar belgilari.

Bu ma'lumotlar yozma shaklda, foto va video qaydlar yoki audio eslatmalar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

## **2) Hujjatli dalillarni yig'ish**

Huquqbuzarlikni isbotlaydigan asosiy dalillar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ✓ shifokor ma'lumotnomasi (agar tibbiy zarar bo'lsa);
- ✓ tashkilot yoki muassasa tomonidan rasmiy javoblar;
- ✓ kirish rad etilgan bo'yoq yozuvi, e'lon, me'yorlarga nomuvofiq infratuzilma suratlari;
- ✓ yuridik ahamiyatga ega elektron yozishmalar (email, SMS, xabar almashuvlar);
- ✓ pandemiya, inklyuziv xizmatlar, transport yoki ta'lim muassasalarida diskriminatsiya qiluvchi qarorlar.

Bularning barchasi huquqbuzarlikning **obyektiv** dalillari hisoblanadi.

## **3) Guvohlarning ko'rsatmalarini yig'ish**

Guvohlar — sud amaliyotida eng muhim tasdiqlovchi omil. Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- voqeani ko'rgan shaxslar;
- muassasa xodimlari;
- boshqa nogiron shaxslar;
- jamoatchilik nazorati vakillari.

Guvohlardan yozma tushuntirish yoki audio yoki video ko'rsatma olish, ularning shaxsini aniqlovchi ma'lumotlarni qayd etish muhimdir.

## **4) Voqea joyining foto va video qaydlari**

Nogironligi bo'lgan shaxslar ko'pincha infratuzilmaviy kamsitishga duch keladi. Shuning uchun foto va video tasvirlar eng samarali dalillardandir: *pandusning yo'qligi yoki noto'g'ri qurilgani; braille yozuvlari yo'qligi; eshitishida*

*nuqsoni bor shaxs uchun tarjimon ta'minlanmagani; binolar, jamoat transporti yoki xizmat ko'rsatuvchi obyektlarda jismoniy to'siqlar.*

Bu tasvirlar keyinchalik sud, Ombudsman yoki prokuratura tomonidan tekshiruv o'tkazishda asos bo'ladi.

### **5) Rasmiy murojaatlar va ularning javoblarini hujjatlashtirish**

Huquqbuzarlik bo'yicha davlat organlariga qilinadigan murojaatlar ham dalil hisoblanadi:

1. Ombudsman;
2. Prokuratura;
3. Sud;
4. Mahalliy hokimiyat;
5. Tegishli vazirlik va agentliklar.

Murojaat yuborilgan sana, raqam, vertikal javob xati — barchasi dalil o'rnini bosadi. Agar murojaatga javob berilmasa, "javob berilmaganligi"ning o'zi ham huquqbuzarlikni isbotlovchi omil bo'lishi mumkin.

### **6) Nodavlat tashkilotlari va himoyachilarning xulosalari**

Nogironlar huquqlari bo'yicha ishlovchi NNTlar, mustaqil ekspertlar, masalan:

- "Nogironlar jamiyatlari"
- huquqiy klinikalar
- advokatlar
- jamoatchilik nazorati guruhlarini ekspert xulosalari ham huquqbuzarlikni isbotlashda qo'shimcha dalil sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari buzilgan holatlarni hujjatlashtirish va dalillarni to'g'ri yig'ish — ularning huquqiy himoyasini real amaliy natijaga olib chiqadigan eng muhim bosqichdir. Voqeaning o'z vaqtida qayd etilishi, guvohlarning ko'rsatmalari, foto-video tasvirlar, rasmiy hujjatlar va murojaatlar — bularning barchasi huquqbuzarlikni isbotlash jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Dalillarni

tizimli va aniq tartibda yig'ish nafaqat sud va prokuratura organlarida ishning muvaffaqiyatli ko'rib chiqilishiga xizmat qiladi, balki Ombudsman, jamoatchilik nazorati va NNTlarning ham samarali aralashuvi uchun mustahkam asos yaratadi. Shu jihatdan, hujjatlashtirish — nogiron shaxsning o'z huquqlarini himoya qilishdagi eng kuchli va eng ishonchli vositasidir.

## **2-§. Hujjatlashtirishning asosiy turlari: yozma, foto, audio va elektron dalillar**

**Hujjatlashtirish** – bu ma'lumotlarni qayd etish, tasdiqlash va keyinchalik isbot sifatida foydalanish uchun rasmiy yoki norasmiy shaklda saqlab qo'yish jarayonidir. Yuridik amaliyotda hujjatlashtirish dalillarni aniqlash, ularni mustahkamlash va sud jarayonida ishonchli ko'rinishda taqdim etish uchun juda muhimdir. Bugungi kunda hujjatlashtirishning to'rtta asosiy turi mavjud: **yoza, foto, audio va elektron dalillar**.

### ***Yozma dalillar***

**Yozma dalillar** eng qadimgi va eng ko'p qo'llaniladigan hujjatlashtirish turidir.

Ular rasmiy yoki norasmiy shaklda bo'lishi mumkin va qo'lda yoki texnik vositalar orqali tayyorlanadi. Yozma dalillarga misollar:

- Shartnomalar, bitimlar
- Arizalar, bildirishnomalar, bayonnomalar
- Korrespondensiya: xatlar, elektron pochta xabarlaril
  - Rasmiy ma'lumotnomalar, guvohnomalar
- Moliyaviy hujjatlar: to'lov kvitansiyalari, hisob-fakturalar

Yozma dalillar mazmuni o'zgarmasligi, aniq sana va imzo mavjudligi sababli sudda eng ishonchli dalillar qatoriga kiradi. Yozma hujjatlar taraflar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning eng aniq aksidir.

Yozma dalillarning huquqiy ahamiyati quyidagilarda ko`rinadi:

- i. **Huquqiy munosabatlarning aniq va rasmiy tasdig'i.** Yozma hujjatlar shartnoma, ariza, bayonnoma yoki akt ko'rinishida bo'lib, taraflar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni bevosita aks ettiradi. Sudlar bunday hujjatlarni eng ishonchli dalillardan biri deb hisoblaydi.
- ii. **Mazmunning barqarorligi va o'zgarmasligi.** Hujjat bir marta imzolanganidan so'ng uning mazmuni odatda o'zgarmaydi. Shu sababli yozma dalillar voqea va kelishuvlarning ayni vaqtdagi holatini ishonchli tasvirlaydi.
- iii. **Rasmiylashtirish tartibiga rioya qilinganini ko'rsatadi.** Ko'plab huquqiy bitimlar (masalan: ko'chmas mulk shartnomalari) faqat yozma shaklda haqiqiy hisoblanadi. Shu sababli yozma hujjatlar huquqiy kuchga ega bo'lishi uchun talab qilingan tartibga rioya qilinganini tasdiqlaydi.
- iv. **Nizolarni hal etishda ishonch kuchi juda yuqori.** Sudlar ko'pincha og'zaki bayonotdan ko'ra yozma hujjatlarga ko'proq tayanadi. Chunki ular ob'ektiv, vaqt belgilangan va imzo bilan tasdiqlangan bo'ladi.
- v. **Ekspertiza o'tkazish imkonini beradi.** Imzo ekspertizasi, muhrning haqiqiyliги, hujjatning eski yoki yangi ekani – bularning barchasi yozma dalillarni yanada ishonchli qiladi.

### ***Foto dalillar***

**Foto (tasvir) dalillar** voqeaning aniq, o'zgarmas ko'rinishini berishi bilan ajralib turadi. Ular real vaziyatni aynan qanday bo'lganini ko'rsatadi.

Foto dalillarga misollar:

- Jinoyat sodir bo'lgan joyning suratlar
- Shikast yetkazilgan mulkning holat
- Hodisa joyidagi izlar, predmetlar
- Videokameradan olingan kadrlar (foto dalil sifatida ham baholanishi mumkin)

Foto dalillar voqeaning ob'ektiv tasvirini beradi, subyektiv talqinlarni kamaytiradi va ekspertiza o'tkazishga imkon yaratadi. Zamonaviy

texnologiyalar tufayli foto dalillarning aniqligi va sifatini tekshirish osonlashgan.

Foto dalillar huquqbuzarlik holatini aniq va o'zgartirilmagan ko'rinishda aks ettirish qobiliyati tufayli sud-tergov jarayonida eng ishonchli dalillardan biri sifatida qaraladi. Ular jinoyat sodir bo'lgan joyning holati, obyektlar joylashuvi, shikastlanishlar yoki mulkq yo'qotish darajasini aniq tasvirlab beradi va bu jihat ularni subyektiv guvohlilardan ko'ra ancha ishonchli qiladi. Zamonaviy fotoapparatlar va telefon kameralarida EXIF metadeta mavjud bo'lib, unda surat olingan sana, vaqt, hatto joylashuv ma'lumotlari saqlanadi. Bu ma'lumotlar foto dalilning haqiqiyiligini tasdiqlashda va voqea sodir bo'lgan vaqtni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Foto tasvirlar kriminalistik ekspertiza uchun ham mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Ekspertlar rasmda aks etgan **izlar, jarohatlar, obyektlar** orasidagi masofa yoki voqea sharoitiga xos boshqa elementlarni tahlil qilib, sud uchun muhim xulosalar chiqara oladi. Shuningdek, foto dalillar sud majlisida ko'rgazmali vosita sifatida ishlatiladi, bu esa hodisaning mohiyatini tushunishni osonlashtiradi hamda jabrlanuvchi yoki ayblanuvchining bayonotlarini tasdiqlash yoki rad etishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli foto dalillar nafaqat informativ, balki katta huquqiy og'irlikka ega bo'lgan real tasdiq vositasidir.

### ***Audio dalillar***

**Audio dalillar** tovush orqali qayd etilgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu suhbat, telefon qo'ng'irog'i yoki boshqa akustik holatlar bo'lishi mumkin.

Audio dalillarga misollar:

- Telefon suhbatlarining yozuvi
- Guvohlarning ovozli izohi
- Uchrashuvlar va yig'ilishlar yozuvi
- Signal, sirena, portlash kabi tovushlar

Audio dalillar kishilar o'rtasida bo'lib o'tgan muloqot, tahdid, kelishmovchilik yoki jarayonni aniq aks ettiradi. Biroq audio yozuvlarning qonuniyligi muhim: ba'zi holatlarda ruxsatsiz yozish sud tomonidan dalil sifatida qabul qilinmasligi mumkin.

Audio dalillarning huquqiy ahamiyati.

- a) **Muloqotning aynan qanday bo'lganini tasvirlaydi.** Tahdid, tovlamachilik, pora so'rash, mojarolar audio orqali aniq qayd etiladi. Bu og'zaki bayonotlardan ko'ra aniqroq va dalilliroq hisoblanadi.
- b) **Shaxsning ovozi orqali identifikatsiya qilish imkonini beradi.** Ovoz ekspertizasi orqali shaxsni aniqlash mumkin. Bu jinoyat isbotida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.
- c) **O'zgartirilgan yoki montaj qilinganligi tekshirilishi mumkin.** Zamonaviy sud ekspertlari audio yozuvlardagi tahrirlarni aniqlash qobiliyatiga ega, bu yozuvning haqiqiylikini baholashda katta rol o'ynaydi.
- d) **"Intonatsiya" va "nutq ohangi"ni ko'rsatadi.** Tahdid, majburlash yoki manipulyatsiya holatlari intonatsiya orqali isbotlanishi mumkin — bu yozma dalilda aks etmaydi.
- e) **Sudda bayonnomaga qaraganda kuchliroq bo'lishi mumkin.** Chunki u real vaqtda ro'y bergan muloqotni aynan qayd etadi.

### ***Elektron dalillar***

Bugungi kunda hujjatlashtirishning eng dinamik va murakkab turi – **elektron dalillar** bo'lib, ular raqamli qurilmalar orqali yaratiladi yoki saqlanadi.

Elektron dalillarga misollar:

- Elektron pochta xabarlar
- Messendjer yozishmalari (Telegram, WhatsApp, Messenger)
- Kompyuter fayllari, hujjatlar (PDF, Word, Excel)
- Server yozuvlari (loglar)

- GPS ma'lumotlar
- Videokuzatuv kameralarining raqamli yozuvlari
- Bank operatsiyalari elektron izlari

Elektron dalillar ko'lamini keng va aniq texnik iz qoldiradi, bu esa firibgarlik yoki manipulyatsiya qilishni kamaytiradi. Shu bilan birga, elektron dalillarning haqiqiylikni tasdiqlash uchun maxsus ekspertiza talab etiladi.

Hujjatlashtirishning yozma, foto, audio va elektron turlari o'z mazmuni, tasvirliligi va ishonchliligi bilan sud jarayonining ajralmas qismidir. Yozma dalillar huquqiy munosabatlarni, foto dalillar – voqea tasvirini, audio dalillar – muloqotni, elektron dalillar esa zamonaviy texnologiyalar orqali qayd etilgan barcha harakatlarni aks ettiradi. Ularning har biri dalillarning to'liqligi, aniqligi va obyektivligini ta'minlashga xizmat qiladi.

### **3-§. Dalillarni yig'ish va saqlashning huquqiy talablari**

Dalillarni to'g'ri yig'ish va ularni qonuniy tartibda saqlash – har qanday huquqbuzarlik holatini isbotlash jarayonining asosiy bosqichidir. Dalillarni to'plashdagi eng kichik xato ham ularning sud tomonidan haqiqiy dalil sifatida tan olinmasligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun dalillar bilan ishlash qat'iy huquqiy talablarga amal qilgan holda amalga oshirilishi lozim.

**Birinchidan**, dalillar **qonuniy yo'l** bilan olinishi shart. Noqonuniy usulda, ya'ni shaxsning rozilgisiz yashirin kuzatuv, ruxsatsiz audio yozuv, shaxsiy yozishmalarni buzib ochish yoki yashirin suratga olish dalil sifatida sud tomonidan rad etilishi mumkin. Jinoyat-protsessual kodeks, Fuqarolik protsessual kodeksi va Ma'muriy sud ish yuritish kodeksida dalillarni yig'ishning aniq chegaralari belgilangan va ularni buzish dalil kuchining yo'qolishiga olib keladi.

**Ikkinchidan**, dalillar **o'z holicha, buzilmagan va o'zgarmagan** holda saqlanishi kerak. Sud amaliyotida "dalilning yaxlitligi" (integrity) tamoyili mavjud bo'lib, unga ko'ra dalil dastlabki holatini saqlab qolishi shart. Masalan,

foto va video materiallarning metama'lumotlari o'zgarmasligi, audio yozuvlar montaj qilinmasligi, yozma hujjatlarda tuzatish yoki qo'shimcha belgilarning bo'lmasligi talab etiladi. Dalil o'zgartirilgan yoki shubhali ekanligi aniqlansa, sud uni kuchsiz yoki haqiqiy emas deb topadi.

**Uchinchi**dan, dalillar bilan ishlashda **zanjirli saqlash** tartibi ("chain of custody")ga rioya etilishi juda muhim. Bu tartib dalil kim tomonidan, qachon, qaysi shaklda olinganini, qaysi organga topshirilganini va kim tomonidan saqlanganini aniq qayd etib borishni nazarda tutadi. Aynan shu tartib dalilning yo'qolishi, soxtalashtirilishi yoki buzib ko'rsatilishining oldini oladi. Bu jarayon yozma qaydlar, dalil qabul qilish dalolatnomalari, ekspertizaga topshirish hujjatlari orqali hujjatlantiriladi.

**To'rtinchi**dan, dalillarni saqlashda **maxfiylik talabi** ham muhim o'rin tutadi. Shaxsga oid ma'lumotlar o'z egasining rozilgisiz oshkor etilmasligi kerak. Bu ayniqsa nogironligi bo'lgan shaxslar, voyaga yetmaganlar, jinsiy zo'ravonlik qurbonlari yoki tibbiy ma'lumotlar ishtirok etgan ishlar uchun dolzarb hisoblanadi. Maxfiylikning buzilishi nafaqat dalilning huquqiy qiymatiga zarar yetkazadi, balki ma'muriy yoxud jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi ham mumkin.

**Beshinchi**dan, dalillarni yig'ish jarayonida **obyektivlik** va **xolislik** ham zarur talablardan biridir. Dalil to'playotgan shaxs hodisani shaxsiy talqiniga ko'ra emas, balki real holatni aks ettirgan tarzda hujjatlantirishi lozim. Aks holda, dalil baholanishi murakkablashadi va uning suddagi ishonchliligi kamayadi.

Umuman olganda, dalillarni yig'ish va saqlashning huquqiy talablari — jarayonning **qonuniyligi**, **ishonchliligi** va **shaffofligini** ta'minlashga qaratilgan. Bu talablarga rioya qilingan taqdirda, dalillar sud tomonidan ob'ektiv ko'rib chiqiladi va ular yordamida haqiqatni aniqlash imkoniyati sezilarli darajada ortadi.

**Xulosa qilib aytganda,** nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari buzilgan holatlarni aniqlash va isbotlash jarayoni **uch** asosiy elementning uzviy bog'liqligiga tayanadi: ma'lumot yig'ish, hujjatlashtirish va dalillarni qonuniy saqlash. Huquqbuzarlik haqida dastlabki ma'lumotlarni izchil yig'ish voqeaning aniq manzarasini tiklashga yordam beradi, foto, audio, yozma va elektron ko'rinishdagi hujjatlar esa ushbu faktlarni yuridik jihatdan ishonchli dalilga aylantiradi. Dalillarni olish va saqlashning huquqiy talablariga rioya qilish — ularning sud yoki boshqa organlar tomonidan haqiqiy va qabul qilinadigan dalil sifatida tan olinishi uchun asosiy shartdir. Shu tariqa, ushbu uch bosqich birgalikda nogiron shaxsning buzilgan huquqlarini tiklashga xizmat qiluvchi mustahkam va samarali huquqiy mexanizmni shakllantiradi.